LOYIHALASH TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH IMKONIYATLARI

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING INDEPENDENT STUDY ASSIGNMENTS BASED ON PROJECT-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGY

Muallif: Jabborov Toxirjon Maqsudali o‘g‘li [1]
Affiliyatsiya: Qo‘qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23292585

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda loyihalash ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Loyihalash texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil izlanishi, axborotlarni tahlil qilishi, muammoni hal etishi, natijani taqdim etishi va o‘z faoliyatini baholashiga yo‘naltirilgan topshiriqlarni shakllantirish xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Loyihalash ta'lim texnologiyasi, mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim topshiriqlari, loyiha, mustaqil ishlash ko‘nikmasi, refleksiya, kasbiy kompetentlik

ABSTRACT

The article highlights the potential of using project-based educational technology to develop students' independent learning skills. It outlines the characteristics of designing assignments based on this technology that encourage students to conduct independent research, analyze information, solve problems, present results, and evaluate their own work.

Keywords: Project-based educational technology, independent learning, independent learning assignments, project, independent work skills, reflection, professional competence

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Mustaqil ta'lim mazmunini talabalarning faol izlanishiga yo‘naltirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, jumladan, loyihalash ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Mazkur texnologiya talabani tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki muayyan muammoni mustaqil o‘rganuvchi, yechim ishlab chiquvchi va amaliy natija yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyihalash ta'lim texnologiyasining pedagogik-psixologik asoslari J. Dyui va U. Kilpatrikning “bajarish orqali o‘rganish” konsepsiyasiga borib taqaladi [Dyui, Kilpatrik: 23–28]. Zamonaviy pedagogik didaktikada E.C. Полат [Полат, 2009: 23–28] tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash usuli talabalarning mustaqil mushohada yuritish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni interfaol metodlar va loyihali yondashuv asosida tashkil etish masalalari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham atroflicha oʻrganilgan. N.N. Azizxodjayeva oʻz ishlarida pedagogik texnologiyalar va loyihalash metodlarining talabalar mustaqil faoliyatini faollashtirishdagi didaktik imkoniyatlarini yoritib bergan boʻlsa [Azizxodjayeva, 2006: 78–82], Sh.S. Sharipov kasbiy ta'limda boʻlajak mutaxassislarning loyihalash-ijodiy faoliyatini rivojlantirish va bu borada mustaqil topshiriqlar tizimini shakllantirish metodikasini asoslab bergan [Sharipov, 2005: 112–115]. Loyihalash ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonida talabalar muayyan muammoni ilmiy jihatdan tahlil qiladilar, yechim variantlarini ishlab chiqadilar va amaliy natijalarga erishadilar. Bu jarayonda pedagog rahbar sifatida yoʻnaltiruvchi, maslahatchi va motivatsiya beruvchi rolini bajaradi. Bunday yondashuv nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini, ijodiy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini, ilmiy izlanish madaniyatini shakllantiradi. M. Abdullayeva loyiha metodining amaliy natijalarini eksperimental tahlil qilib, loyihaviy topshiriqlar bilan ishlagan talabalarda mustaqil izlanish va mas'uliyat darajasi 1,4 barobar oshganini qayd etadi [Abdullayeva, 2020: 73–81]. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi talabalarda muammoni aniqlash va tahlil qilish, tadqiqot usullaridan maqsadli foydalanish, axborotlarni saralash va qayta ishlash, hamkorlikda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi kasbiy-metodik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Ayniqsa, boʻlajak biologiya oʻqituvchilarining mustaqil ta'lim olish koʻnikmalarini shakllantirishda loyihaviy faoliyatni mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi ta'lim jarayoni tahlili shuni koʻrsatdiki, loyihaviy faoliyatni tashkil etishda metodik rejalashtirishning yetarlicha aniq belgilanmaganligi, talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga oluvchi differensial topshiriqlar tizimining shakllantirilmaganligi hamda baholash mezonlarining umumiy xarakterga egaligi mustaqil ta'lim faoliyatini toʻliq qoʻllab-quvvatlash imkoniyatini cheklaydi. Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida mustaqil ta'lim topshiriqlarini loyihalashga yoʻnaltirilgan “Intellektual-modulli loyihalash modeli”, talabalarning tayyorgarlik darajasi va individual xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial topshiriqlar tizimi hamda loyiha jarayoni va yakuniy natijani kompleks baholashga xizmat qiluvchi mezonlar ishlab chiqildi.

Mazkur metodik yondashuv loyihaviy ta'lim jarayonini maqsadli rejalashtirish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini murakkablik darajasi boʻyicha tabaqalashtirish va talabalarning faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Bunda A daraja asosiy axborotni izlash, saralash va qayta ishlashga, B daraja axborotlarni tahlil qilish, taqqoslash va metodik yechim ishlab chiqishga, C daraja esa ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil loyihani ishlab chiqish va himoya qilishga yoʻnaltiriladi. Talabalarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va kognitiv tayyorgarlik darajasiga mos loyihaviy topshiriqlarni taklif etish natijasida ularning mustaqil ta'lim olish motivatsiyasi, ijodiy faolligi, tahliliy fikrlashi, tadqiqotchilik faolligi hamda kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishda maqsad, mazmun, topshiriqlarning murakkablik darajasi, bajarish jarayoni va baholash mezonlarining oʻzaro uzviy bogʻliqligini ta'minlash talabalarning mustaqil ta'lim olish koʻnikmalarini tizimli rivojlantirishning muhim metodik sharti sifatida belgilanadi.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash — talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini shunchaki nazariy konspekt qilish o‘rniga, aniq amaliy yoki ilmiy muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan loyiha ko‘rinishida bajaradilar.

Tadqiqotchilik va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish — talaba mustaqil ravishda muammoni qo‘yish, gipoteza ilgari surish, axborot yig‘ish, manbalarni tahlil qilish va yakuniy mahsulot yaratish bosqichlarini bosib o‘tadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — loyiha ustida ishlash jarayonida turli manbalardan olingan ma'lumotlarni saralash, solishtirish va ular asosida mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Interfaollik va raqamli savodxonlik — zamonaviy loyihalar multimedia va raqamli vositalardan foydalanishni (taqdimotlar, elektron manbalar, tahliliy dasturlar) talab qiladi, bu esa talabalarning IKT kompetentligini oshiradi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini fan dasturlariga kiritishda ularning aniq bosqichlari (tashxis, rejalashtirish, amaliy bajarish va taqdimot) va baholash mezonlarini oldindan belgilab qo‘yish; talabalarning raqamli savodxonligini hisobga olgan holda, mustaqil loyiha topshiriqlari tarkibiga AKT va multimedia vositalaridan foydalanish talablarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009. – С. 23–28.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 78–82.
3. Sharipov Sh.S. Talabalar loyihalash-ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2005. – № 4. – B. 112–115.
4. Abdullaeva M. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 73–81.